

## SHARTNOMA № 42834

16«9»2022 yil.

2879-11-153-TB/2022-son

Ushbu shartnoma bir tomondan SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ nomidan rahbari SH. Muxammedov vakilligida kelgusida "Ijrochi" va ikkinchi tomondan Beshariq tumani Tibbiyot birlashmasi boshlig'i L.S.Jo'rayev vakilligida kelgusida "Buyurtmachi" o'rtasida har ikki tomonning amaldagi "Nizom"lari va O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi va "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuniga, shuningdek, boshqa amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq quyidagi mazmunda tuzdilar:

### I. Shartnoma predmeti.

1.1 "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga ushbu shartnomaga asosan quyidagilarni etkazib beradi

№	Nomi	o'lchov birligi	miqdori	narxi	summasi
1	Transformator GGDP 100/10	dona	1	13 900 000	13 900 000
Jami					13 900 000

umumiy qiymati 13 900 000 (O'n uch million to'qqiz yuz ming ) so'm 00 t

(summa raqam va so'z bilan yoziladi)

1.2. "Ijrochi" esa o'z navbatida ushbu "Tovar" lar uchun kelishilgan haqni shartnomaning 2-bo'limida belgilangan shartlar asosida "Buyurtmachi" ga to'laydi.

### II. To'lov tartibi.

2.1. "Buyurtmachi" shartnoma imzolanganidan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" umumiy qiymatining 30 % ni oldindan 4 170 000 so'm miqdorda "Ijrochi" ning hisob-raqamiga pul o'tkazish yo'li bilan to'laydi. Yetkazib berilgan "Tovar" lar to'lovining qolgan, ya'ni 70 % qismi esa "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" qabul qilib olingandan so'ng 30 (o'ttiz) kalendar kun ichida to'lab beriladi.

### III. Tomonlarning huquq va majburiyatlari

#### 3.1. "Ijrochi" ning huquq va majburiyatlari:

3.1.1. "Buyurtmachi" tomonidan "Tovar" umumiy narxining 30 foizi "Ijrochi" ning hisob raqamiga oldindan to'langandan so'ng "Ijrochi" "Buyurtmachi" ni "Tovar" bilan ta'minlaydi.

3.1.2. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga tegishli hujjatlar asosida "Tovar"ni belgilangan tartibda hamda belgilangan standart sifat darajasida topshirish majburiyatini oladi.

3.1.3. "Ijrochi" "Buyurtmachi" ga qulaylik yaratish maqsadida "Tovar"ni o'z transport vositalarida "Iste'molchi" ning manzilgohiga yetkazib berishi mumkin. Bu holda transport vositasi orqali yetkazib berish harajati "Ijrochi" tomonidan qoplanadi.

3.1.4. "Ijrochi" ning transport vositasida yetkazilgan "Tovar" ning miqdoridan aniqlangan kamomad hamda sifatsizliklar yuzasidan "Buyurtmachi" "Ijrochi"ning vakili ishtirokida "Tovar" yetkazilgan kundayoq dalolatnoma tuzib holatni tasdiqlaydi. Mazkur dalolatnomaga asosan kamomad hisobi "Ijrochi" tomonidan to'ldiriladi. Agarda ushbu harakatlar o'z vaqtida amalga oshirilmasa e'tiroz asossiz deb hisoblanib, inobatga olinmaydi.

3.1.5. "Ijrochi" Sog'liqni saqlash tizimidagi yuqori tashkilotlar tasdiqlagan markazlashgan taqsimot orqali dori vositalari va muruvvat yordamlaridan kelgan "Tovar"lar bilan "Buyurtmachi"ni ta'minlaydi. Taqsimotni tasdiqlagan tashkilotning ruxsatisiz "Buyurtmachi" "Tovar" ni olishga haqli emas. Transport harajatlari "Buyurtmachi" tomonidan qoplanadi.

#### 3.2. "Buyurtmachi"ning huquq va majburiyatlari:



3.2.1. "Ijrochi" "Buyurtmachi" dan shartnoma tuzilgandan so'ng yetkazib berilishi lozim bo'lgan "Tovar" uchun ularning umumiy qiymatining 30 foizini oldindan to'lagandan so'ng 10 kalendar kun ichida tegishli hujjatlarni rasmiylashtirib, "Tovar"ni ishonehnoma asosida qabul qilib olish huquqiga ega.

3.2.2. "Buyurtmachi" "Ijrochidan" dan texnik talablarga javob beradigan hamda sifat sertifikatiga ega bo'lgan "Tovar"larni talab qilish huquqiga ega. Yetkazib berilgan "Tovar" sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmasa, "Buyurtmachi" "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonunining 26-moddasiga muvofiq "Tovar"ni qabul qilishni hamda ularning haqini to'lashni rad etib, "Ijrochi"dan sifatsiz va belgilangan texnik talablarga mos kelmaydigan "Tovar" qiymatining 20 foizi miqdorida jarima undirishga haqli.

#### **IV. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari**

4.1. Tomonlarning mulkiy javobgarliklari O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksi, "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni va boshqa amaldagi qonun hujjatlari bilan tartibga solinadi.

4.2. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga berilgan yillik berilgan buyurtmalarni "Buyurtmachi" ushbu shartnomaning umumiy summasidan kelib chiqqan holda to'liq olishi shart. Aks holda "Buyurtmachi"dan O'zbekiston Respublikasi "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 31-moddasiga muvofiq olinmay qolgan (olish asossiz rad etilgan) "Tovar" summasining 5 foizi, tez buziladigan "Tovar"lar bo'yicha esa 10 foizi miqdorida jarima undiriladi.

4.3. "Ijrochi" tomonidan yetkazib berilgan "Tovar" uchun to'lanishi lozim bo'lgan to'lov haqi "Buyurtmachi" tomonidan o'z vaqtida amalga oshirilmasa, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 32-moddasiga muvofiq to'lov kechiktirilgan har bir kun uchun to'lanishi lozim bo'lgan umumiy summaning 0,4 foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50% dan ortik bo'lmagan miqdorda "Ijrochi" ga penya to'laydi.

4.4. "Buyurtmachi" tomonidan "Ijrochi"ga yillik berilgan buyurtmalarni yetkazib berishni "Ijrochi" asossiz ravishda kechiktirsa, kechiktirilgan har bir kun uchun "Ijrochi" "Buyurtmachi"ga yetkazib berilmagan "Tovar" umumiy qiymatining 0,5 foizi miqdorida, ammo yetkazib berilmagan tovar umumiy qiymatining 50 % dan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

#### **V. Fors-major xolatlari**

5.1. Taraflardan xech biri boshqa tarafning oldida ushbu shartnoma bo'yicha olgan majburiyatlarni taraflarning erki va istagidan tashqari paydo bo'lgan va ularni oldindan ko'ra bilish yoki bartaraf etish mumkin bo'lmagan holatlar (urushlar, fuqarolik tartibsizligi, epidemiya holati, blokada, embargo, tabiiy ofatlar) bilan bog'liq holatda bajarmaganligi uchun javobgar bo'lmaydi.

#### **VI. Nizolarni hal qilish tartibi**

6.1. Ushbu shartnoma yoki unga bog'liq masalalar yuzasidan kelib chiqadigan barcha nizolar tomonlar o'rtasida muzokara yo'li bilan hal qilinadi. Agarda kelishuvga erishilmasa qonunchilikda belgilangan tartibda "Ijrochi" joylashgan joydagi iqtisodiy sud tomonidan hal qilinadi.

#### **VII. Shartnoma muddati va uni o'zgartirish tartibi**

7.1. Mazkur shartnomaga kiritiladigan barcha o'zgartirishlar va qo'shimchalar faqat tomonlarning o'zaro yozma kelishuvlari bilan kiritilishi mumkin.

7.2. Shartnoma bir xil yuridik kuchga ega bo'lgan ikki nusxada tuzildi.

7.3. Ushbu shartnoma g'aznachilik bo'limi tomonidan ro'yxatdan o'tkazilgan kundan boshlab yuridik kuchga kiradi.

7.4. Shartnoma 2022 yil "31" dekabr kuniga qadar amal qiladi.

#### **VIII. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha kurashish bo'yicha tomonlar kelishuvi.**

8.1. Taraflar shartnoma tuzishda? Shartnomaning amal qilish muddatida va ushbu muddat tugagandan so'ng shartnoma bilan bog'liq korrupsiyaviy xarakatlarni sodir qilmaslikka kelishib oladilar.



8.2. Taraflar shartnomadagi korrupsiyaga qarshi qo'shimcha shartlarda belgilangan korrupsiyaning oldini olish choralarini tan oladi va ularga rioya etilishi bo'yicha xamkorlikni ta'minlaydilar.

8.3. Har bir taraf shartnoma tuzilgan paytda bevosita o'zi yoki uning ijroiya organlari mansabdor shaxslari xodimlari tomonidan shartnoma bilan bog'liq munosabatlar yuzasidan qonunga xilof ravishda pul moddiy qiymatliklar berilmaganligini shartnoma tuzilishi evaziga norasmiy pul yoki moddiy qiymatliklar olinishiga yo'l qo'yilmaganligini taklif etilmaganligini ularni berishga va'da qilinmaganligini shuningdek har qanday turdagi imtiyoz ustunliklar olinmaganligini kafolatlaydi.

8.4. Shuningdek tomonlar o'rtasida korrupsiya holatlari sodir etilganda O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligi? Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va savdo sanoat palatasining 2021 yil 12 noyabrdagi 1/4671-.01-19/7284.7/01-08-9544- son qarorga muvofiq vakolatli davlat organlarini darhol xabardor qilishi shart.

8.5. Bir tarafning talabi bo'yicha ikkinchi taraf tomonidan qoidabuzarlikni bartaraf qilish bo'yicha oqilona muddat ichida tegishli choralar ko'rilmagan yoki ko'rib chiqish natijalari xaqida xabardor qilmagan taqdirda ushbu taraf shartnomani bir tomonlama to'xtatib turishga bekor qilishua xamda zararni to'liq qoplab berishni talab qilishga xaqli

#### IX. Tomonlarning pochta manzili va to'lov rekvizitlari:

“Ijrochi”

“Buyurtmachi”

SHERXON INVEST QURILISH ONE MCHJ

Beshariq tumani Tibbiyot birlashmasi

manzil: Beshariq shahri  
X/r: 20208000105271363001  
MFO: 00797  
bank :Beshariq xalq Banki.  
INN: 307679454

manzil: Beshariq sh. Sirdaryo k. №76  
shx/r: 100022860302157073101054005  
bank: Markaziy bank Toshkent sh\_  
STIR: 200155126 OKONX 91511  
G'aznachilik bc'linmasi nomi:  
Beshariq tumani  
Markaziy bank Toshkent shahar Bosh  
boshqarmasi XKKM  
Yagona g'azna x/v: 23402000300100001010  
MFO: 00014 STIR: 201122919  
Tel: +99873 612 31 14



SH. Muxammedov.

Rahbar: \_\_\_\_\_ Jo'rayev L.S  
(imzo, muxr, F.I.O.)

	Hujjat <u>elektron raqamli imzo</u> orqali imzolangan. Elektron raqamli imzoning haqiqiyiligini tekshirish uchun QR Code ni skanerlang.	
	Imzolovchi F.I.SH.	LAZIZ JO'RAYEV SADRIDDINOVICH
	Imzolangan sana	16 ceh 2022 09:40
	Hujjat kodi	HN4147016010
Hulosa kodi	RO0887355033	





**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI**  
**FARG'ONA VILOYAT ADLIYA BOSHQARMASI**  
**BESHARIQ TUMAN ADLIYA BO'LIMI**  
**YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI**

150300, Beshariq tumani, Oltin vodiy ko'chasi, 46-uy  
Tel: (998 73) 612-21-19, el. pochta: beshariq-t-yurmarkaz@adliya.uz

16.09.2022 yil

**Beshariq tuman**  
**Tibbiyot birlashmasi**

**XULOSA**

*(Tibbiyot birlashmasining shartnomaga  
qo'shimcha kelishuv loyihasiga)*

**1.Loyihaning turi:** Shartnoma.

**2.Loyhaning nomi:** "Mahsulot etkazib berish to'g'risida"gi shartnoma.

**3.Loyiha ishlab chiquvchisi va kiritilgan sana haqidagi ma'lumot:**

Tibbiyot birlashmasining tomonidan 2022 yil 14 sentyabr kuni ishlab chiqilib va shu kuni markazga taqdim qilingan.

Tibbiyot birlashmasi hamda "SHERXON INVEST QURILISH ONE" MChJ o'rtasida Transformator GGDP 100/10 yetkazib berish to'g'risidagi shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiqligi mazmunan o'rganib chiqildi.

Shartnoma loyihasi O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdagi 670-I-sonli "Xo'jalik yurituvchi subyektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonunining 10-moddasi (Xo'jalik shartnomasiga nisbatan qoyiladigan talablar)ga muvofiq ishlab chiqilgan.

O'zbekiston Respublikasining 2021 yil 22-apreldagi "Davlat xaridlari to'g'risida"gi 684-sonli Qonuni hamda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2018 yil 26 mayda №3016-son bilan ro'yhatdan o'tkazilgan "Xarid qilish tartib-taomillarini tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom va O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 02-iyuldagi PQ-5171-sonli "Davlat xaridlari shaffofligini ta'minlash va samaradorligini oshirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 20 maydagi "Davlat xaridlarini amalga oshirish bilan bog'liq tartib-taomillarni tashkil etish va o'tkazish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida"gi 276-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Respublika tovar hom-ashyo birjasining "xarid.uz" saytidagi Tibbiyot birlashmasining shaxsiy kabineti orqali Transformator GGDP 100/10 sotib olish bo'yicha № 144298-lot raqami bilan 2022 yil 7 sentyabr kuni e'lon joylashtirilgan.

Tibbiyot birlashmasining №№ 144298-lot raqami bilan o'tkazilgan tanlov bo'yicha O'zbekiston Respublika tovar-hom birjasi "UZEX" maxsus portali o'rganilganda, 7.09.2022 yil kuni bayonnoma rasmiylashtirilgan bo'lib, tanlov

natijalariga ko'ra "SHERXON INVEST QURILISH ONE" MChJ g'olib deb topilgan.

Shartnoma loyihasiga Beshariq tuman Tibbiyot birlashmasining Transformator GGDP 100/10 sotib olish bo'yicha № 144298- lot bo'yicha xarid komissiyasining bayonnomasi, №144298-lot raqamli e'lon bo'yicha takliflar, "SHERXON INVEST QURILISH ONE" MChJ tadbirkorlik guvohnomasi av ustavi, Farg'ona viloyati Beshariq tumani hokimining 2022 yil 18 avgustdagi Beshariq tuman Tibbiyot birlashmasiga mablag' ajratish to'g'risidagi 152-11-153-F/22-sonli farmoyishi ilova qilingan.

Yuqoridagilarni inobatga olib, huquqiy ekspertizadan o'tkazish natijalariga ko'ra:

### XULOSA

Beshariq tuman Tibbiyot birlashmasi tomonidan taqdim etilgan shartnoma loyihasi amaldagi qonunchilikka muvofiq ishlab chiqilgan.

Markaz Bosh yuristkonsulti:



F. Jo'rayev



“ТАСДИҚЛАЙМАН”

Бешарик тумани Тиббиёт бирлашмаси  
бошқирмаси раиси)



Л.Жўраев

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар маҳкамасининг 2022 йил 20 майдаги Давлат харидларини амалга ошириш билан боғлиқ тартиб-таомилларни ташкил этиш ва ўтказиш тартиби тўғрисидаги низомни тасдиқлаш ҳақидаги қарори ва Давлат харидлари тўғрисидаги қонуннинг 62-моддасининг 7-хатбошига кўра Бешарик Туман тиббиёт Бирлашмасига трансформатор ГГДП 100/10 сотиб олиш учун лот№ 22110012144298 бўйича танлов комиссиясининг муҳокама натижалари юзасидан

6 -СОҢЛИ МАЖЛИС БАЁНИ

2022 йил “ 13 ” сентябр соат 09:30  
шаҳри

Бешарик

Танлов комиссияси иштирокчилари:

Л.Жўраев

- ТТБ бошлиғи комиссия раиси;

Ш.Турдиев

- ТТБ бош ҳисобчиси, танлов комиссияси аъзоси;

Б.Хотамов

- Материал ҳисобчиси, танлов комиссияси аъзоси;

Ш.Жалилова

- Харидлар бўйича мутахассис, танлов комиссияси аъзоси;

А.Оноров

- Бош муҳандис, танлов комиссияси аъзоси;

Йиғилиш кун тартибидаги кўриладиган масала;

2022-йилда etender.uzex.uz лот№ 22110012144298 рақами билан Бешарик туман Тиббиёт бирлашмасига трансформатор ГГДП 100/10 сотиб олиш учун 26.08.2022 йилдан 06.09.2022 йилгача бўлган вақтда порталга жойлаштирилган. Танловда 2 (икки) нафар

иштирокчи катнашди булар 1. SHERHON INVEST QURILISH ONE MCHJ  
2. WORLD MARKET BESHARIQ 1995

Танлов 07.09.2022 йил куни танлов комиссияси азолари томонидан SHERHON INVEST QURILISH ONE MCHJ ғолиб деб топилди ва 07.09.2022 йил соат 20:28 да электрон баённома расмийлаштирилди ва шу пайтнинг ўзида 2 иш кунига муҳокамага жойлаштирилди. Шу 2 иш кунни давомида ҳеч қандай эътирозлар келиб тушмади ва махсус комиссия қарори билан SHERHON INVEST QURILISH ONE MCHJ билан шартнома тузишга қарор қилинди.

Л.Жўраев

Ш.Турдиев

Б.Хотамов

Ш.Жалилова

А.Оноров



## FARG'ONA VILOYATI BESHARIQ TUMANI HOKIMI FARMOYISHI

2022 - yil 18 - avgust

152-11-153-F/22

Beshariq tumani hokimligi

### **Beshariq tumani Tibbiyot birlashmasiga mablag' ajratish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Budget kodeksining 28- va 126-moddalariga asosan,

1. Beshariq tumani Tibbiyot birlashmasining elektr ta'minotini yaxshilash maqsadida, birlashma hududida joylashgan hozirgi kunda ishchi holatida bo'lgan transformator punktining quvvatini oshirish uchun punktning transformator qismini yuqori quvvatli transformatorga almashtirish va hududni toza ichimlik suvi bilan ta'minlash uchun suv nasosi sotib olish hamda suv tarmog'i tortish harajatlari tuman mahalliy budjetining 2022-yil 2-chorak daromadlar rejasini ortiqcha bajarilgan qismi hisobidan 25,0 (yigirma besh) mln.so'm mablag' tuman Tibbiyot birlashmasiga ajratilsin.

2. Mazkur farmoyish qabul qilinishi munosabati bilan, tuman hokimining 2022-yil 28 - iyul kungi 133-11-153-F/22-sonli farmoyishi bekor qilinsin.

3. Tuman hokimligi Moliya bo'limi (X.Isroilov)ga ajratilgan mablag'lar doirasida moliyalashtirish, tuman G'aznachilik bo'linmasi (B.Nishonov)ga to'lovlarni o'rnatilgan tartibda va o'z vaqtida amalga oshirish vazifalari topshirilsin.

4. Tumani Tibbiyot birlashmasi (L.Jo'rayev)ga mazkur farmoyish bilan ajratilgan mablag'ni, ishlab chiqilgan harajatlar smetasiga muvofiq maqsadli va samarali sarflanishini ta'minlasin.

5. Ushbu farmoyishning bajarilishini nazorat qilish vazifasi tuman hokimining o'rinbosarlari T.Samatov va I.Eshmatovlar zimmasiga yuklansin



Tuman hokimi



R.K.Jo'rayev